

**XXI ASR ZAMONAVIY IQTISODIY NAZARIYALARI: RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI VA AMALIY AHAMIYATI****Mirzaev Ravshanbek Burxonovich***Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi***Kalilaev Makset***Ta’lim sifati boshqarmasi boshlig‘i***Annotatsiya**

Ushbu maqolada XXI asrda shakllangan va rivojlanayotgan zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari hamda jahon iqtisodiyoti rivojidagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, bixevioral iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalarining nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, mazkur nazariyalarning iqtisodiy siyosat va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy nazariya, raqamli iqtisodiyot, bixevioral iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, globallashuv.*

Annotation

This article analyzes the content, specific features and significance of modern economic theories formed and developing in the 21st century in the world economy. The theoretical foundations of the concepts of digital economy, institutional economy, behavioral economy, innovative economy and sustainable development are highlighted. The significance of these theories in making economic policy and management decisions is also shown.

Keywords: *economic theory, digital economy, behavioral economics, institutional economics, innovative economics, sustainable development, globalization.*

Kirish

XXI asr iqtisodiyoti jadal globallashuv, raqamlashtirish, innovatsiyalar va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar iqtisodiy munosabatlarning shakli va mazmunini o‘zgartirib, iqtisodiy fan oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Natijada an’anaviy iqtisodiy nazariyalar zamonaviy iqtisodiy voqelikni to‘liq izohlab berishda ma’lum cheklovlarga duch kelmoqda. Shu sababli yangi iqtisodiy nazariyalar va konsepsiyalar paydo bo‘lib, iqtisodiy jarayonlarning yangi qirralarini o‘rganishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar iqtisodiy o‘shish, inson kapitali, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va ekologik barqarorlik kabi masalalarni markaziy o‘ringa qo‘ymoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Tadqiqotning maqsadi XXI asr zamonaviy iqtisodiy nazariyalarining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishdagi ahamiyatini o‘rganish, shuningdek, raqamli iqtisodiyot, institutsional, bixevioral va innovatsion iqtisodiyot nazariyalarining zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. XXI asr zamonaviy iqtisodiy nazariyalarining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish va tahlil qilish.

2. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning shakllanishiga ta’sir etgan omillarni aniqlash va baholash.

3. Raqamli iqtisodiyot nazariyasining mazmuni, xususiyatlari va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilish.

4. Institutsional iqtisodiyot nazariyasining iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga ta’sirini o‘rganish.

5. Bixevioral iqtisodiyot nazariyasining iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonlaridagi ahamiyatini tadqiq etish.

6. Innovatsion iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini baholash.

7. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyalarining iqtisodiy nazariyadagi o‘rnini yoritish.

8. Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va katta ma’lumotlarning iqtisodiy nazariyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish.

9. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va iqtisodiy siyosatni takomillashtirishdagi amaliy ahamiyati bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish.

XXI asr zamonaviy iqtisodiy nazariyalari mavzusiga oid adabiyotlar tahlili: XXI asr zamonaviy iqtisodiy nazariyalari iqtisodiy fanning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu sohada ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni tushunish va nazariy yondashuvlarni baholash imkonini beradi.

Avvalo, institutsional iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishida Douglass Northning ishlari muhim ahamiyatga ega. U institutlarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida baholaydi va mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida huquqiy hamda siyosiy institutlarning ta’sirini ilmiy asoslab beradi. Keyinchalik Daron Acemoglu va James A. Robinson tomonidan yaratilgan “Why Nations Fail” asarida mamlakatlar taraqqiyotining asosiy sababi sifatida inklyuziv institutlar muhimligi ko‘rsatib berilgan.

Bixevioral iqtisodiyot sohasida Daniel Kahneman va Amos Tversky tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular insonlar iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda har doim ham ratsional harakat qilmasligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Raqamli iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlarda axborot texnologiyalari va innovatsiyalarning iqtisodiy o‘rishga ta‘siri keng yoritilgan. Xususan, Manuel Castellsning axborot jamiyati haqidagi tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy munosabatlarga ta‘siri tahlil qilingan. Uning fikricha, XXI asr iqtisodiyotining asosiy resursi axborot va bilim hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot nazariyasining nazariy asoslari Joseph Schumpeter ishlarida shakllangan bo‘lib, zamonaviy tadqiqotchilar ushbu g‘oyalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada rivojlantirganlar. Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi va bu g‘oya hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ishlarida ham raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, institutsional islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish masalalari keng o‘rganilmoqda. Ularning tadqiqotlarida mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda XXI asr zamonaviy iqtisodiy nazariyalarining mazmuni, rivojlanish tendensiyalari va amaliy ahamiyatini o‘rganish maqsadida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning mazmunini alohida elementlarga ajratib o‘rganish va ularni yaxlit tizim sifatida baholash uchun tahlil va sintez usuli, iqtisodiy jarayonlar haqidagi alohida dalillardan umumiy xulosalar chiqarish hamda nazariy qoidalar asosida muayyan iqtisodiy holatlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya usuli, raqamli iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, bixevioral iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot nazariyalarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usuli, iqtisodiy nazariyalarni o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida o‘rganish va ularning iqtisodiy taraqqiyotga ta‘sirini baholash uchun tizimli yondashuv usuli, jahon va milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda nazariy xulosalarni amaliy ma‘lumotlar bilan asoslashda statistik tahlil usuli, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy maqolalarni chuqur o‘rganish uchun monografik tadqiqot usuli, iqtisodiy nazariyalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini izchillik asosida yoritishda mantiqiy tahlil usuli qo‘llanildi.

Mazkur metodologiya tadqiqot mavzusini har tomonlama o‘rganish, zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish hamda asoslangan ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar: XXI asrda iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyasi iqtisodiy nazariyalarning ham mazmunan yangilanishiga olib keldi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning asosiy yo‘nalishlari – raqamli iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, bixevioral iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot va barqaror rivojlanish iqtisodiyoti tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy iqtisodiy nazariyalar asosan mehnat, kapital va yer resurslarini iqtisodiy o‘shishning asosiy omillari sifatida baholagan bo‘lsa, XXI asr iqtisodiy nazariyalari bilim, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, inson kapitali va institutlarni iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayverlari sifatida e’tirof etmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

- globallashtirish jarayonlarining kuchayishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi;
- raqamli iqtisodiyotning kengayishi;
- xalqaro moliyaviy inqirozlar;
- ekologik muammolarning kuchayishi;
- inson kapitali ahamiyatining ortishi;
- sun’iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari.

Ushbu omillar iqtisodiy munosabatlarni yangi yondashuvlar asosida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Raqamli iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha tahlil. XXI asrning eng muhim iqtisodiy yo‘nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyot hisoblanadi. Unda iqtisodiy faoliyatning asosiy qismi raqamli texnologiyalar va internet orqali amalga oshiriladi.

Raqamli iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra:

- ma’lumot muhim iqtisodiy resursga aylanadi;
- elektron tijorat iqtisodiy o‘shishning muhim manbai hisoblanadi;
- raqamli platformalar yangi bozor munosabatlarini shakllantiradi;
- mehnat bozorida masofaviy ishlash imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida baholandi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida:

- iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi oshmoqda;
- elektron tijorat hajmi kengaymoqda;
- transaksion xarajatlar kamaymoqda;
- mehnat bozorida yangi kasblar shakllanmoqda;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ortib bormoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi va yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atlari nisbatan yuqori hisoblanadi.

Institutsional iqtisodiyot bo‘yicha tahlil. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida samarali institutlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida quyidagi holatlar aniqlandi:

- mulk huquqlarining himoya qilinishi investitsiyalarni jalb qilishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi;

- huquqiy tizimning samaradorligi tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi;
- korrupsiya darajasining pastligi iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi;
- davlat boshqaruvi sifati iqtisodiy taraqqiyot sur‘atlarini belgilaydi.

Natijada iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi ko‘p jihatdan institutlar sifatiga bog‘liq ekanligi tasdiqlandi.

Bixevioral iqtisodiyot bo‘yicha tahlil. Bixevioral iqtisodiyot nazariyasi insonlarning iqtisodiy qarorlari doimo ratsional emasligini ko‘rsatadi. Tahlil natijalari quyidagilarni aniqladi:

- iste‘molchilar qarorlariga psixologik omillar kuchli ta‘sir ko‘rsatadi;
- iqtisodiy tanlovlarda kognitiv xatolar tez-tez uchraydi;
- moliyaviy bozorlardagi ayrim beqarorliklar inson xulq-atvori bilan izohlanadi;
- davlat siyosatini ishlab chiqishda aholi psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Bu holat iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish uchun bixevioral yondashuvlardan keng foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Innovatsion iqtisodiyot bo‘yicha tahlil. Tahlil natijalari innovatsiyalar iqtisodiy o‘shishning asosiy manbalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Xususan:

- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalar iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi;

- startaplar va texnologik kompaniyalar yangi ish o‘rinlarini yaratadi;
- inson kapitali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi;
- innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligi mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natijada innovatsion iqtisodiyot yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning muhim vositasi ekanligi aniqlandi.

Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti bo‘yicha tahlil. Tadqiqotda iqtisodiy o‘shish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi munosabatlar ham tahlil qilindi. Uning natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- yashil texnologiyalardan foydalanish resurs tejamkorligini ta‘minlaydi;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi;
- ekologik muammolar iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin;

- barqaror rivojlanish strategiyalari uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni ta’minlaydi.

Shu bois iqtisodiy siyosatda ekologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt va iqtisodiy nazariya. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda sun’iy intellekt:

- mehnat unumdorligini oshirish;
- iqtisodiy prognozlashtirish;
- katta ma’lumotlarni tahlil qilish;
- avtomatlashtirish jarayonlarini boshqarish vositasi sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, ishsizlik, daromadlar tengsizligi va raqamli xavfsizlik kabi yangi iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Xulosa. XXI asr iqtisodiy nazariyalari an’anaviy iqtisodiy yondashuvlarni boyitib, iqtisodiy jarayonlarni yanada chuqurroq tushunish imkonini bermoqda. Tadqiqot natijalari XXI asr iqtisodiy nazariyalari iqtisodiy rivojlanishni tushuntirishda an’anaviy nazariyalarni to‘ldirib, yangi iqtisodiy voqeliklarga mos yondashuvlarni taklif etadi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt iqtisodiy o‘shishning yangi manbai sifatida shakllanayotganligi, samarali institutlar iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanishini, inson xulq-atvori va psixologik omillarni hisobga olish iqtisodiy qarorlarning samaradorligini oshirishini, innovatsiyalar va inson kapitali mamlakat raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi, barqaror rivojlanish tamoyillarini iqtisodiy siyosatga joriy etish uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni ta’minlash imkonini berishini, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar va institutsional islohotlarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Raqamli iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, bixevioral iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot va barqaror rivojlanish nazariyalari zamonaviy iqtisodiyotning muhim nazariy asoslarini tashkil etadi. Ushbu nazariyalar iqtisodiy siyosatni shakllantirish, iqtisodiy o‘shishni ta’minlash va jahon iqtisodiyotidagi yangi chaqiriqlarga moslashishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gregory Mankiw. *Principles of Economics*. 10th ed. Boston: Cengage Learning, 2024.
2. Paul Krugman, Robin Wells. *Economics*. 7th ed. New York: Worth Publishers, 2024.
3. Joseph E. Stiglitz, Carl E. Walsh. *Economics*. 6th ed. New York: W.W. Norton & Company, 2023.

4. Daron Acemoglu, James A. Robinson. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. New York: Crown Business, 2012.
5. Thomas Piketty. *Capital in the Twenty-First Century*. Cambridge: Harvard University Press, 2014.
6. Thomas Piketty. *Capital and Ideology*. Cambridge: Harvard University Press, 2020.
7. Richard H. Thaler, Cass R. Sunstein. *Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness*. Revised Edition. New Haven: Yale University Press, 2021.
8. Klaus Schwab. *The Fourth Industrial Revolution*. Geneva: World Economic Forum, 2016.
9. [World Bank Open Knowledge Repository](#). Jahon iqtisodiyoti va rivojlanishga oid yillik hisobotlar.
10. [The National Bureau of Economic Research \(NBER\)](#). Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga oid ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.
11. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi](#). O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar.
12. [O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi](#). Iqtisodiy islohotlar va rivojlanish strategiyalariga oid materiallar.